



SO'NGGI O'N YILLIKDA HINDISTON-AQSH MUNOSABATLARI RIVOJIDAGI ASOSIY YO'NALISHLAR

To'ychiyeva Ra'no Almamatovna

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Ijtimoiy fanlar kafedresi, Toshkent, O'zbekiston,

Email: rano-tuichiyeva@mail.ru,

tel.: +998974046454

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7095363>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2022

Accepted: 16th September 2022

Online: 20th September 2022

KEY WORDS

strategik sheriklik, savdo,
mudofaa, xavfsizlik, sun'iy
intelekt, Hind-Tinch okeani
mintaqasi

ABSTRACT

Mazkur tezis oxirgi yillarda sodir bo'layotgan global geosiyosiy o'zgarishlar fonida Hindiston-Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari dinamikasi, o'zaro munosabatlarni rivojlantirishda belgilab olingan muhim yo'nalishlar, hamkorlikni kuchaytirishga turtki bo'layotgan asosiy omillar va mavjud kamchiliklar, ikki davlat munosabatlari yuzasidan kutilayotgan istiqbollar tahliliga bag'ishlangan.

AQSh Hindistonning eng keng qamrovli strategik sherigi bo'lib, ikki davlat savdo, mudofaa, ko'p tomonlama razvedka, kiber makon, fuqarolik atom energiyasi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ko'plab sohalarda hamkorlik qiladi. Yangi o'n yillikka kirishar ekan, ular Hind-Tinch okeani mintaqasida hamkorlik qilish uchun yangi kun tartibini belgilab olishdi hamda bu yo'nalishda "erkin va ochiq" bo'lishga intilishmoqda. So'nggi yillardagi geosiyosiy o'zgarishlar va Kovid-19 pandemiyasi ikki tomonlama munosabatlarni istiqbolli baholashga yo'naltirdi. Rivojlanayotgan texnologiyalar, ta'lim, milliy xavfsizlik va mudofaa, kosmik va kiber xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash, savdo, gumanitar yordam va tabiiy ofatlarni bartaraf etish, infratuzilmani moliyalashtirish hamda erkin va ochiq Hind-Tinch okeanida qoidalarga asoslangan tartibni joriy qilish bo'yicha hamkorlik kelgusi yillarda Hindiston-AQSh munosabatlari rivojidagi asosiy yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Bugungi kunda ikki tomonlama mudofaa hamkorligi vazifalarni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, yangi harbiy mashqlarni olib borish, mudofaa savdosi va texnologiya tashabbusini qayta quvvatlantirish bilan olib borilmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ikkita ko'p tomonlama strategik guruhlar – 2017 yilda qayta tiklangan Hindiston-Avstraliya-Yaponiya-AQSh to'rtlik guruhi (QUAD) va 2021 yilda tashkil etilgan Isroil-Hindiston-Birlashgan Arab Amirliklari-AQSh ishtirokidagi G'arbiy Osiyo to'rtligi (I2U2) qisqa vaqt ichida faoliyatini kengaytirishga ulgurdi. Ushbu to'rtliklar Hindiston va AQSh uchun hamfikir demokratik davlatlar bilan maqsadli ko'p tomonlama hamkorlikni davom ettirishning eng yaxshi formatiga aylandi, ayniqsa G'arbiy Osiyo to'rtligining texnologik hamkorlikka yo'naltirilganligi alohida salohiyatga ega bo'ldi. Amerikaning Afg'onistondan harbiy qo'shinlarini olib chiqishda yo'llar



borasidagi Pokistonga qaramligi kamaydi, endi Hindiston - AQSh Pokistondagi terroristik guruhlariga qarshi birgalikda kurashish harakatlarini yanada kengaytira boshlashdi. Shuningdek, Hindiston va AQSh Hind-Tinch okeanidagi infratuzilmaviy investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni qondirish va Xitoyning 'Bir kamar, bir yo'l' tashabbusiga qarshi ishonchli alternativaga ega bo'lish uchun mintaqaviy ilg'or davlatlar bilan ishonchli hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga kirishishdi.

Asosiy qism

Rivojlanayotgan texnologiyalar va milliy xavfsizlik

So'nggi yillarda texnologiyalar bo'yicha Hindiston-AQSh hamkorligi tobora kuchayib bormoqda va ikki tomon 2021 yilda bir nechta yangi kelishuvlarni imzoladilar. Xususan, 2021 yil mart oyida Hindiston-AQSh fan va texnologiyalar forumining Sun'iy intellekt tashabbusi (USIAI) sun'iy intellekt bo'yicha hamkorlikka, jumladan, ikki tomonlama tadqiqotlar va ishlanmalar, sog'liqni saqlash, aqlli shaharlar, qishloq xo'jaligi, energetika va ishlab chiqarish sohasidagi tadqiqot sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. 2021 yil sentyabr oyida AQSH Prezidenti J.Bayden va Hindiston Bosh vaziri N.Modi kosmik xavfsizlik, kiber xavfsizlik, sog'liqni saqlash xavfsizligi, yarim o'tkazgichlar va kelajak avlod aloqa texnologiyalari sohalarida kengaytirilgan hamkorlikni muhokama qildilar. Shuningdek, ular kiber kosmosdagi zaifliklar va tahdidlarni bartaraf etish, muloqotlar, qo'shma uchrashuvlar, treninglar va eng yaxshi amaliyotlar bilan bo'lishish orqali kiber tahdidlarga javob berish bo'yicha o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirishga kelishib oldilar. Ushbu uchrashuv ikkita domen – kiberxavfsizlik

va sun'iy intellekt bo'yicha harakat maydonlarini aniqlab berdi.

Kiberxavfsizlik

So'nggi yillarda kiber-hujumlar, jumladan, to'lov dasturlari, josuslik kampaniyalari va boshqa zararli faoliyatlarning ko'payishi muhim infratuzilmaviy va raqamli aktivlarning mustahkamligi haqida xavotirni kuchaytirmoqda. Birgina misol, Hindistonning Favqulodda vaziyatlarda javob berish guruhi (CERT-In) 2021 yilda Hindistonda 1,4 million kiberxavfsizlik hodisalari sodir bo'lgani haqida xabar berdi va Hindiston bu yilda Osiyodagi eng ko'p kiber hujumlarni boshdan kechirgan mamlakatlar qatoriga kirdi.

Sanoat, hukumat va jamoalarning umumiy kiber barqarorligi juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, Hindiston va AQSh duch keladigan kiberxavfsizlik tahdidlarining tabiati ham geosiyosiy o'lchovga egadir. Hindiston-AQSh ikki tomonlama hamkorligida kiberxavfsizlikning ahamiyati ortib borayotganidan yorqin dalolat shuki, 2022 yil yanvar oyida Hindiston-AQSh Milliy xavfsizlik muloqotining katta ofitserlar yig'ilishi bo'lib o'tdi va bundan ko'zlangan asosiy maqsad kiberxavfsizlik va muhim infratuzilmani ta'minlashda hamkorlikni mustahkamlashga qaratildi.

Mudofaa va xavfsizlik bo'yicha asosiy hamkorlikni qurish

2016-2020 yillarda Hindiston va AQSh "2+2" mudofaa va tashqi ishlar vazirlari muloqotini o'tqizib bordilar va bu davrda uchta asosiy harbiy bitimlar imzolandi – Logistika almashinuvi to'g'risidagi bitim memorandum (LEMOA), Aloqa muvofiqligi va xavfsizlik shartnomasi (COMCASA) va Asosiy almashinuv va hamkorlik shartnomasi (BECA). Ular logistika ta'minoti va xizmatlarini o'zaro ta'minlash, shifrlangan aloqa uskunalari uzatish va



ulardan foydalanish hamda geografik razvedka almashinuvini rivojlantirishga imkon beradi. Xuddi shu davrda, shuningdek, ikki tomon o'rtasida Vertolyotning o'zaro faoliyat shartnomasi (HOSTAC) va AQSh hukumatiga maxfiy ma'lumotlarni Hindiston mudofaa muassasalari bilan bo'lishishga imkon beradigan harbiy ma'lumotlarning umumiy xavfsizligi to'g'risidagi bitim (GSOMIA) va Sanoat xavfsizligi bo'yicha kelishuv shartnomasi (ISA) ham imzolandi.

2020 yil oktyabr oyida AQShning Sun'iy intellekt bo'yicha Milliy xavfsizlik komissiyasi Hindistonni Hind-Tinch okeanidagi AQSh texnologik aloqalarini saqlovchi kuch sifatida ko'rishni ta'kidlaydi. Shuningdek, mudofaa va xavfsizlik bo'yicha AQSh-Hindiston strategik texnologik ittifoqini yaratish taklif qilindi. 2021 yil mart oyida Hindistonning Fan va texnologiyalar qo'mitasi va AQSh Davlat qo'mitasi hamkorligida AQSh-Hindiston sun'iy intellekti (USIAI) tashabbusini amalga oshirish boshlandi. USIAI sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, shaharsozlik, ta'lim, energetika va transport sohasida sun'iy intellekt bo'yicha simpoziumlar tashkil eta boshladi. USIAI ikki mamlakatda tegishli manfaatdor tomonlar o'rtasida bilim almashinuvini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, ehtimol AQShning Hindistonning Rossiya bilan munosabatlariga ehtiyotkorligi tufayli, bu yo'nalishda aloqalar sekinlashdi. Hindistonning Ukraina inqirozi bo'yicha barcha davlatlarni teng huquqli ekaniga ishora qilishi AQShning bu masalada Hindistonga bo'lgan munosabatining yumshashi mumkinligini ko'rsatadi. AQSh davlat kotibi Blinken 2022 yil aprel oyida ikki davlat vazirlari o'rtasida bo'lib o'tgan muloqotida "bugun biz deyarli har bir

sohada — tijorat, texnologiya, ta'lim va xavfsizlik bo'yicha Hindiston bilan sherik bo'lishga qodir va tayyormiz" deb ta'kidlaydi.

Ayni paytda Hindiston va AQSh kengaytirilgan va harbiy mashqlar doirasida xavfsizlikning turli yo'nalishlari – dengiz xavfsizligi, kosmik xavfsizlik, ichki xavfsizlik, kiber xavfsizlik va strategik xavfsizlik bo'yicha muloqotlarni rivojlantirib borishmoqda. Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Qo'shma ishchi guruh va mudofaa savdosini rivojlantirish bo'yicha idoralararo ishchi guruhi faoliyat olib bormoqda. Hozirda Hindiston AQSh Markaziy qo'mondonligi bilan Bahraynda doimiy vakilini joylashtirmoqda va AQSh Hindistonning MILAN dengiz mashqlariga qo'shilishga taklif qilindi. Bundan tashqari, Hindistonning Gurugram shahridagi axborot termoyadroviy markazi – Hindiston okean mintaqasi guruhi (IFC-IOR) ga AQShning aloqa bo'yicha xodimi ham kiritildi.

2020 yil Xitoy-Hindiston chegarasida inqiroz boshlanganda, D.Trump ma'muriyati Hindistonga ikkita zamonaviy kuzatuv dronlari va sovuq ob-havo sharoitida kerak bo'luvchi yordamchi vositalarni taqdim etdi. AQShning ayrim taniqli qonunchilari va hukumat amaldorlari ham Xitoyning nazorat chizig'idagi tajovuzkorligini qoralashdi.

AQShning Hindistonga qurol-yarog' savdosi davom etmoqda. 2008-2018 yillarda Hindiston 20 milliard AQSh dollaridan ortiq so'mlik AQSh mudofaa uskunalarini sotib olgan bo'lsa, so'nggi yirik mudofaa shartnomasi 2020 yilda tuzildi va Hindiston dengiz floti uchun 3 milliard AQSh dollaridan ortiq summaga 24 ta dengiz qirg'og'i vertolyoti va Hindiston armiyasi uchun oltita Apache



vertolyotlarini sotib oldi. Hindistonga AQSh qurolli dronlarini yetkazib berish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda va Hindiston harbiy modernizatsiya dasturini amalga oshirishda kelajakda ko'plab mudofaa bitimlarini imzolashni rejalashtirgan.

Hindiston-AQSh hamkorligidagi kengroq va muhim muammolar orasida Xitoyning tobora tajovuzkor xatti-harakatlari, xususan bahsli Xitoy-Hindiston chegarasi masalalari ham muhim o'rin tutadi. 2020 yildagi chegara inqirozi so'nggi 40 yildan ortiq vaqt ichida ro'y bergan jangovar harakatlar orasida eng ko'p yo'qotishlarga olib kelgani bo'ldi va ikki davlat ham o'z qo'shinlarini chegaralari bo'ylab joylashtirishda davom etishmoqda. J.Bayden ma'muriyati va AQSh Kongressi Xitoyning Hindiston bilan chegaralari bo'ylab agressiv taktikasini ochiqchasiga qoralaydi va bu AQShning Hindistonga uning hududiy yaxlitligini himoya qilish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar va razvedkada yordam berishga tayyorligini bildiradi. Xitoy Arunachal Pradesh Tibet bilan chegaradosh sharqiy sektor bo'ylab o'z infratuzilmasini kengaytirmoqda va hali ham chegaradagi 90000 kv km hududga da'vo qilib kelmoqda. AQSh o'z o'rnida Pekinga Hindistonning Arunachal Pradesh ustidan suverenitetini tan olishini eslatib keladi.

2020 yil oktyabr oyida AQShning P-8 dengiz kuzatuv samolyoti birinchi marta hind harbiy bazasiga quyildi. Shu yildan boshlab Avstraliya, Hindiston, Yaponiya va AQSh o'rtasida Malabar dengiz mashqlari o'tqizib kelinmoqda. Hindiston va AQSh Hind okeanida Hindistonning Andaman va Nikobar qo'mondonligida dengiz mashqlarini bajarishni rejalashtirishmoqda.

2017 yilda Hindiston, Avstraliya, Yaponiya va AQSh to'rtligining qayta tiklanishi, 2019 yilda Janubiy Xitoy dengizi orqali Hindiston-Yaponiya-AQSh-Filippin davlatlari o'rtasida "qo'shma yelkanlar" nomli harbiy mashqlarning o'tkazilishi, 2021 yilda yangi Hindiston-Isroil-BAA-AQSh to'rt tomonlama muloqoti e'lon qilinishi, Hindiston-Yaponiya-AQSh o'rtasidagi uch tomonlama kelishuvlar va boshqalar Hindistonning strategik avtonomiyasini saqlab qolish va muhim strateg mamlakatlar bilan yanada moslashuvchan strategik sheriklikni mustahkamlash va qo'shilmaslik o'tmishidan uzoqlashish maqsadlarini aks ettirishi bilan birga, dunyo o'tgan asrlar davomida harbiy shartnomaviy ittifoqlaridan, yanada moslashuvchan va funksional koalitsiyalarga o'tayotganini aks ettiradi.

Aksilterrorizmga paydo bo'layotgan xavotirlar

Hindiston - AQSh terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Qo'shma ishchi guruhining tuzilishi va bu bo'yicha AQSh-Hindiston o'rtasidagi muloqotlarning yo'lga qo'yilishi ikki tomonlama diplomatik mexanizmlarda terrorizmga qarshi kurash sohasini ham yanada ahamiyatini oshirdi. Ushbu institutsional harakatlar ikki davlat o'rtasidagi terrorizmga qarshi kurash geosiyosatidagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu bo'shliqlarga Suriyadagi Islomiy davlatga qarshi kurash (ISIS), Myammarda Al-Qaddafiy hukmronligini bekor qilish va Liviyadagi 2011 mojarosini hal qilish uchun AQSH harakatlariga nisbatan Hindiston qarashlaridagi farqlarni kiritish mumkin.

Umuman olganda, Hindiston va AQSh uchun terrorizmga qarshi kurashda,



xususan, Janubiy Osiyoda hamkorlik qilish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Terrorizmga qarshi kurashning an'anaviy sohalaridan tashqari, Hindiston va AQSh tomonidan terrorizmga qarshi kurashga qo'shma kompleks yondashuv terroristik guruhlarni moliyalashtirishga qaratilishi kerak. Hindiston va AQSh terrorizmga qarshi kurashning turli jihatlarida ustida ishlagan bo'lsa-da, Janubiy Osiyoda terrorizmni moliyalashtirishning taqiqlanishi - Gavala-rasmiy moliya tizimidan qochishda davom etmoqda. Terrorizmni moliyalashtirilishiga qarshi kurash sohasida Hindiston va AQSh hamkorligining yana bir potentsial ko'inishi g'arbiy Osiyodan Pokistongacha bo'lgan hududda joylashgan terroristik guruhlarga xayriya mablag'larini yo'naltirilishini diqqat bilan o'rganib chiqilishida namoyon bo'lmoqda.

Ikkala mamlakatni tashvishga soladigan boshqa sohalar qatori, terroristik guruhlar tomonidan kiberhujumdan foydalanishda targ'ibot, yollash va moliyalashtirishning kuchayishi ham yana bir asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda Janubiy Osiyodagi terroristik guruhlar tomonidan VPN va TOR kabi shifrlash texnologiyalaridan foydalanish xavfsizlik muassasalarining bosh masalasiga aylanib qolmoqda. Hindiston va AQSh ushbu tendensiyalarga qarshi kurashish uchun texnologik kompaniyalar bilan hamkorlik qilish orqali birgalikda ishlashlari kerak.

Ikki tomonlama savdo va global qiymat zanjirlari

Hindiston va AQSh muhim iqtisodiy aloqalarga ega. Birinchidan, AQSh Hindistonning eng yirik savdo sherigi bo'lib, ikki tomonlama savdo 2019 yilda 19 milliard AQSh dollar miqdori bilan yangi

rekord o'rnatgan edi. AQSh, shuningdek, Hindistondagi eng yirik xorijiy investitsiyalar manbai bo'lib, 48.2 milliard dollarlik ichki investitsiya oqimlari bilan savdo va investitsiya munosabatlarining o'sgani nafaqat ularning strategik sherikligini to'ldiradi, balki Hind-Tinch okeanida paydo bo'layotgan iqtisodiy me'morchilikni shakllantirish imkoniyatini beradi. Muhim sohalarida savdoni amalga oshirish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni osonlashtirish va transmilliy korporatsiyalarni ikki tomonlama savdo va ishlab chiqarishda ishtirok etishini rag'batlantirish savdo sohasidagi strategik rejalar qilib belgilangan.

AQSh va Hindiston uchun savdo va global ta'minot zanjirlari strategiyasi investitsiyalar uchun mutanosib reja tuzmasdan turib samarali natija bera olmaydi. AQShning yetakchi firmalari yoki g'arbiy Yevropa va Sharqiy Osiyodagi sherik firmalarning investitsiyalarisiz Hindistonning global qiymat zanjirlariga, xususan yuqori texnologiyali tarmoqlarga qo'shilishi qiyin bo'lib qoladi.

AQShdan Hindistonga katta miqdordagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish muhim sohalarida ikki tomonlama savdoni rag'batlantirishi mumkin. AQSh hukumati yillar davomida Hindiston bilan savdoni qo'llab-quvvatlash uchun yadro energiyasi (masalan, Hindiston-AQSh yadroviy bitimi), tabiiy gaz va mudofaa uskunalari (masalan, Hindiston-AQSh Mudofaa texnologiyalari va savdo tashabbusi) kabi asosiy sohalarida turli xil choralarni ko'rmoqda.

Hozircha Amerika firmalarining Xitoydan Hindistonga qarab diversifikatsiya qilish g'oyasi amalga oshmoqda deb aytish biroz qiyin. Xitoydan ajralib chiqqan bir nechta amerikalik firmalarning aksariyati



Vetnamni tanladilar, Hindistonga faqat bir nechta sarmoya kiritdilar.

Ba'zi sohalarda Hind kompaniyalari global bozorlarda ulkan mavqega egadirlar. Masalan, Hindistonning telekommunikatsiya sohasi dunyoda ikkinchi o'rinda, farmatsevtika uchinchi, avto ishlab chiqarish to'rtinchi va kimyoviy moddalar savdosi bo'yicha oltinchi o'rinda turadi. Elektronika, muhandislik tovarlari, kapital tovarlari va qishloq xo'jaligi kabi boshqa sohalarda Hindiston investitsiya oqimlarini kamroq jalb qiladi va shuning uchun jahon bozorida raqobatlashish, savdo qilish yoki qulay shartlar bo'yicha muzokaralar olib borish qiyin. Biroq, yaqinda o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektronika eksporti ko'paymoqda, Hindiston 2021 yilda 16 milliard so'mlik elektronika eksportini amalga oshirgan.

So'nggi bir necha yil ichida AQSh ta'minot zanjirlarini Xitoydan uzoqlashtirish va yo'naltirish uchun geosiyosiy va iqtisodiy majburiyatlarga javob berish choralari ko'rmoqda. Hindiston ushbu choralarning ayrimlaridan foyda ko'radi. Yaxshilangan ishbilarmonlik muhiti va hukumat hamkorligi bilan Hindiston va AQSh iqtisodiyoti va ularning strategik manfaatlarini qo'llab-quvvatlaydigan ta'minot zanjirlarini kuchaytirish mumkin bo'ladi.

Xulosa

AQSh Hindistonning mintaqaviy va global ko'p tomonlama manfaatlarini, jumladan, Birlashgan Millatlar tashkilotida ilgari surishda ishonchli hamkor ekanligini isbotladi. Geostrategik landshaft o'zgarishda davom etar ekan, Hindiston ham, AQSh ham o'z strategiyalarini Hind-Tinch okeanida va undan tashqarida yanada muvofiqlashtirishga harakat

qilishmoqda. So'nggi yigirma yil ichida Hindiston va AQSh o'zlarining shaxsiy manfaatlari va global maqsadlari o'rtasida sinergiyaga erishish uchun ikki va ko'p tomonlama kun tartiblarini tobora ko'proq moslashtirdilar. Ushbu tahlillar Hindiston va AQShdan alohida e'tibor talab qiladigan beshta yo'nalishni aniqlab beradi: rivojlanayotgan texnologiyalar va milliy xavfsizlik, mudofaa bo'yicha hamkorlik, ikki va ko'p tomonlama manfaatdagi ustuvor jihatlarni aniqlash, terrorizmga qarshi kurash va o'zaro savdoni rivojlantirish. Ushbu sohalarga yo'naltirilgan e'tibor keyingi o'n yil ichida Hindiston-AQSh munosabatlarining traektoriyasini keng mashtabda shakllantirishi kutilmoqda. Shu bilan birga, bu nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy va global manfaatdor tomonlar bilan misli ko'rilmagan muvofiqlashtirishni talab qilmoqda. Ushbu beshta aniq sektorlar bo'yicha ambitsiyalar ostida ikkala mamlakat uchun hamkorlik subdomenlari yaratilishi kutilmoqda.

Hindiston-AQSH hamkorlik aloqalarini belgilangan sohalarda bo'yicha yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari surilmoqda:

1. Rivojlanayotgan texnologiyalar va sun'iy intellekt bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish, chunki ma'lumotlarni tartibga solish, ma'lumot almashish va maxfiylikni himoya qilish milliy xavfsizlikni saqlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.
2. Ko'p tomonlama va xalqaro masalalar bo'yicha muvofiqlashtirishni kuchaytirish, shu jumladan, so'nggi yillarda rivojlantirib borilayotgan ikki va ko'p tomonlama strategik muloqotga ustuvor ahamiyat berish.



3. Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha hamkorlikni davom ettirish. Xavfsizlik va mudofaa masalalarini paydo bo'layotgan texnologiya kun tartibiga kiritish, masalan, sun'iy intellektni mudofaa dasturlarining umumiy tamoyillarini aniqlashga qaratish.

4. Ikki tomonlama savdoni kuchaytirish va transmilliy korporatsiyalarni ushbu tashabbuslarda

ishtirok etishini rag'batlantirish uchun bir-birining iqtisodiyotida investitsiyalar hajmini oshirish.

5. Kiberxavfsizlik bo'yicha ishlaydigan vazirliklar o'rtasida, ayniqsa, muayyan masalalar bo'yicha tegishli hamkorlarni aniqlash uchun ko'proq muvofiqlashtirish choralari ko'rishdan iborat.

References:

1. "US India Artificial Intelligence (USIAI) Initiative launched," Department of Science and Technology, Government of India, <https://dst.gov.in/us-india-artificial-intelligence-usiai-initiative-launched>
2. "Internet Crime Report 2021", Federal Bureau of Investigation, 2021_IC3Report.pdf
3. Michael Novinson, "U.S. Government Blames China For Microsoft Exchange Hack," CRN, July 19, 2021, <https://www.crn.com/news/security/u-s-government-blames-china-for-microsoft-exchange-hack>
4. Meenakshi Ahamed, "America Has Never Really Understood India", The Atlantic, May 20, 2022, <https://www.theatlantic.com/ideas/archive/2022/05/joe-biden-narendra-modi-us-india/629823/>
5. Prashant Jha, "India and US bridge Ukraine differences", Mint, April 13, 2022, <https://www.livemint.com/news/india/india-and-us-bridge-ukraine-differences-11649793031103.html>
6. Ned Price, "Secretary of State Antony J. Blinken's Meeting with Emirati Foreign Minister Sheikh Abdullah bin Zayed, Indian External Affairs Minister Dr. Subrahmanyam Jaishankar, and Israeli Foreign Minister and Alternate Prime Minister Yair Lapid," U.S. Department of State, October 18, 2021, <https://www.state.gov/secretary-of-state-antony-j-blinkens-meeting-with-emirati-foreign-minister-sheikh-abdullah-bin-zayed-indian-external-affairs-minister-dr-subrahmanyam-jaishankar-and-israeli-foreign-minist/>
7. Sameer Patil, "A collaborative tech vision for US, UAE, Israel and India," The Indian Express, November 19, 2021, <https://indianexpress.com/article/opinion/columns/tech-vision-for-us-uae-israel-and-india-7628233/>
8. Kritika Sharma, "First, Pakistan boycotts Biden's summit. Now, Imran Khan calls for strengthening ties with US", The Print, December 12, 2021, <https://theprint.in/go-to-pakistan/first-pakistan-boycotts-bidens-summit-now-imran-khan-calls-for-strengthening-ties-with-us/780420/>
9. Arvind Ojha, "R&AW, Delhi Police conducted joint operation with CIA in 2016 to bust ISIS-K camps in Afghanistan: Sources", India Today, September 18, 2021, <https://www.indiatoday.in/india/story/raw-delhi-police-joint-operation-cia-2016-isis-k-camps-afghanistan-sources-1854319-2021-09-18>